



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2025-yil 22- sentabr

02/10-4/1-8293-son

O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligiga

2025-yil 12-sentabdagi
22/51-13604/8-son xatingiz yuzasidan

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 20-maydagi 168-sonli buyrug‘i bilan Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti, oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatoriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan.

Mazkur o‘zgartirish bilan Klassifikatorning pedagogik ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxatidan Matematika, Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya, Tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari Klassifikatorning 2-Bob “San’at va gumanitar fanlar”, 5-Bob “Tabiiy fanlar, matematika va statistika” Bilim sohalariga o‘tkazilib, maqbullashtirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 60540100-Matematika, 60540200-Amaliy matematika, 60530500-Fizika, 60530100-Kimyo, 60510100-Biologiya, 60530200-Geografiya, 60220300-Tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari 3-, 4-bosqichida tahsil olayotgan talabalar va ushbu ta’lim yo‘nalishlarini tamomlagan bitiruvchilar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan amaldagi Malaka talablariga asosan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borishlari mumkin.

Vazirning birinchi
o‘rinbosari



S. Radjabov